
OCHIQ MULOQOT O'TKAZILDI

Bugun Rishton tumanidagi 18-umumiy o'rta ta'lim maktabida tuman hokimi va sektor rahbarlarining o'quvchi yoshlar bilan ochiq muloqoti o'tkazildi.

Tuman hokimi o'z nuqtida hududlarda yoshlarga oid davlat dasturlari bilan ishlash, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularga zamonaviy kasb-hunarlar hamda xorijiy tillarni o'rgatish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, yoshlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish borasida amalga oshirilayotgan choralarning samaradorligi haqida ma'lumot berdi. Mamlakatimiz yoshlari o'z iqtidor va salohiyatini namoyish etishi, jamiyatda munosib o'rin egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratilayotganini alohida ta'kidladi.

Erkin, o'zaro ochiq muloqot shaklida o'tgan uchrashuvda tuman hokimi va sektor rahbarlari tomonidan yoshlarning taklif va muammolarini o'rganildi, ularni o'ylantirayotgan masalalar bilan qiziqdi. Yoshlar tomonidan ko'tarilgan har bir masala va tashabbusga aniq hamda atroflicha javob berildi.

2024-03-12 14:22:40